

Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 902,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.


Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi

(2019 yil yanvar-sentyabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Sirdaryo viloyati bo'yicha - jami	1 902,1
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	1 999,0
Qurilish	2 516,5
Savdo	2 409,8
Tashish va saqlash	1 515,1
Axborot va aloqa	2 087,4
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3 402,0
Ta'lim	1 792,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 643,0
Boshqa faoliyat turlari	2 080,9

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2 430,6** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,8 %**), Guliston shahrida **2 159,0** ming so'mni (**113,5 %**) va Yangiyer shahrida **2 044,2** ming so'mni (**107,5 %**) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 420,9** ming so'mni (**74,7 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-sentyabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




Ma'lumot uchun: Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1 sentyabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.

Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
 (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
 sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil Yan- var-sentyabr	2019 yil Yan- var-sentyabr	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	1436,2	1902,1	132,4
Guliston sh.	1643,2	2159,0	131,4
Shirin sh.	1729,2	2430,6	140,6
Yangiyer sh.	1504,3	2044,2	135,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1266,7	1748,6	138,0
Boyovut	1199,6	1776,0	148,0
Guliston	1253,5	1663,0	132,7
Sayhunobod	1421,7	1906,8	134,1
Mirzaobod	1226,3	1420,9	115,9
Sardoba	1304,5	1693,5	129,8
Sirdaryo	1343,9	1749,7	130,2
Xovos	1349,9	1845,9	136,7

Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-sentyabr (dastlabki ma'lumot)




Ish haqi. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1999,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 12,9 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2516,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 20,2 % ga oshdi.




•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2409,8 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi.


•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1515,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 16,8 % ga oshdi.

Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-sentyabr (dastlabki ma'lumot)



•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2087,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 13,0 % ga tushdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3402,0 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 52,1 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1792,5 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 37,8 % ga oshdi.



•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1643,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 41,5 % ga oshdi.